

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN STANSIYA NAVBATCHISI ISHINI REJALASHTIRISH FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Stansiya navbatchisi ishini rejalashtirish talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Stansiya navbatchisi ishini rejalashtirish

1. Temir yo‘l transporti tizimi va stansiya boshqaruvining umumiy asoslari;
2. Stansiya navbatchisining amaliy faoliyatida hujjatlar bilan ishlash tartibi;
3. Poyezdlar harakatini tashkil etish va boshqaruv tizimlari;
4. Stansiya ishini tahlil qilish va texnologik jarayonlarni takomillashtirish;
5. Mahalliy ishlarni tashkil etish va xizmat reglamentlari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalari va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalari	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
------------	------------------------	---------------------	-------------------	---------------------

1	Temir yo‘l transporti tizimi va stansiya boshqaruvining umumiy asoslari	Temir yo‘l transporti tizimining tuzilishini va boshqaruv zanjirini tahlil qila olishi, boshqaruv darajalarini farqlash va ularning vazifalarini izohlay olishi, stansiyaning transport tizimidagi o‘rni va ahamiyatini tushuna olishi; stansiya elementlarini aniqlash va ularning vazifalarini taqqoslay olishi; temir yo‘l tizimining boshqa transport turlari bilan integratsiyasini tahlil qilish haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.	20 %	8 ta
2	Stansiya navbatchisining amaliy faoliyatida hujjatlar bilan ishlash tartibi	Poyezdlar harakati jurnali, buyruq, telegramma, hisobot va harakat rejasini to‘ldirishni bilishi; hujjatlar aylanish jarayonini modellashtirishni bila olishi; axborot almashinuvi tizimlarini tahlil qila olishi; xizmat hujjatlari bilan ishlashda aniqlik, ketma-ketlik va mas’uliyatni tushuna olishi; real amaliy misollar asosida dispetcher va navbatchi o‘rtasidagi hujjat aylanishini haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.	20 %	8 ta
3	Poyezdlar harakatini tashkil etish va boshqaruv tizimlari	Harakat jadvalini tuzish, o‘zgartirish va tahlil qila olishi; markazlashtirish, blokirovka va signalizatsiya tizimlarining ishlash tamoyilini aniqlash; harakat xavfsizligini ta’minlovchi vositalarni farqlay olishi; real holatlar asosida poyezdlar harakati ketma-ketligini tuza bilishi; favqulodda holatlarda harakatni boshqarish yechimlarini ishlab chiqish haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.	27,5 %	11 ta
4	Stansiya ishini tahlil qilish va texnologik jarayonlarni takomillashtirish	Yuk va yo‘lovchi oqimlarini tahlil qilish, statistik ma’lumotlar asosida xulosa qila olishi; stansiya texnologik xaritasini tuza olishi; ish samaradorligi ko‘rsatkichlarini (vagon aylanishi, yuk aylanmasi, kechikish vaqti) hisoblash va tahlil qila olishi; yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali jarayonni optimallashtirishni bilishi; stansiya faoliyatini avtomatlashtirish bo‘yicha taklif ishlab chiqish ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.	15 %	6 ta
5	Mahalliy ishlarni tashkil etish va xizmat reglamentlari	Mahalliy poyezdlar harakatini rejalashtirish, xizmat smenasini tashkil etish, reglamentlar va yo‘riqnomalarni bila olishi; xizmat intizomi va xavfsizlik me’yorlarini amalda qo‘llay olishi; ish smenasida navbatchi va yordamchi xodimlar faoliyatini muvofiqlashtira olishi; mahalliy poyezdlar harakati jadvalini tuzish hamda xizmat reglamentiga muvofiq tahlil qila olishi; xizmat jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.	17,5 %	7 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	15 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	70 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	15 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iy man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Rasulov M.X., Mirzayeva G.A. Temir yo‘l transportida harakatni tashkil qilish va boshqarish. – Toshkent: 2007.
2. O.Turdimatov., N.Ibragimov. Yuk va yo‘lovchilarni tashishni tashkil qilish. Toshkent, 2007-y.
3. A.Shorustamov., R.Abdullaev. Temir yo‘l bekatlari va tugunlari. Toshkent, 2007-y.
4. D.Samikova., M.Baxtiyorova. “Temir yo‘l bekatlari va tugunlari” fanidan kurs ishini bajarish uchun Uslubiy ko‘rsatma Toshkent, 2023- y.
5. O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘llarida poyezdlar harakati va manyovr ishlari bo‘yicha yo‘riqnoma. – Toshkent: “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, 2003.
6. O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘llarida texnikaviy foydalanish qoidalari. – Toshkent: “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, 2004.
7. O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘llarida signallashtirish bo‘yicha yo‘riqnoma. – Toshkent: “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, 2005.